TURKIYADA XOTIN-QIZLAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHNING TARIXIY ILDIZLARI: USMONLI DAVRI TAJRIBASI

Yo‘ldosheva Kamola Ilhomovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada Usmonli imperiyasining so‘nggi davrida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilishga oid qarashlar, tibbiy xizmat ko‘rsatish amaliyoti va davlat siyosatining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ayollar shifoxonalari, akusherlik faoliyati, sanitariya tadbirlari, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, tug‘ruq va bolalar salomatligi hamda ayollarning tibbiy kasblarga jalb etilishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, tibbiy xizmatni tashkil etishdagi ijtimoiy va iqtisodiy to‘siqlar, qonunchilik va amaliyot o‘rtasidagi tafovutlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Usmonli davrida shakllangan tibbiy va institutsional tajribalar Turkiya Respublikasining dastlabki yillaridagi sog‘liqni saqlash siyosatini tarixiy jihatdan tushunishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Usmonli imperiyasi, xotin-qizlar salomatligi, tibbiy xizmat, onalar salomatligi, bolalar salomatligi, akusherlik, sanitariya, emlash, ayollar shifoxonasi, Turkiya Respublikasi.

Abstract

This article examines the historical roots of women’s healthcare in Türkiye through the experience of the late Ottoman Empire. It explores medical services for women, maternity care, midwifery, public sanitation, infectious disease prevention, maternal and child health, and women’s participation in medical professions. Particular attention is paid to women’s hospitals, healthcare legislation, and the differences between official policies and their practical implementation. The study also considers the social and economic barriers that limited women’s access to medical assistance. The findings suggest that the medical institutions, public health initiatives, and professional practices developed during the late Ottoman period provide an important historical context for understanding healthcare policies in the early Republic of Türkiye.

Keywords: Ottoman Empire, women's health, medical services, maternal health, child health, midwifery, sanitation, vaccination, women's hospitals, Republic of Türkiye.

Аннотация

В статье рассматриваются исторические истоки охраны здоровья женщин в Турции на примере позднего периода Османской империи. Анализируются медицинская помощь женщинам, акушерская практика, санитарные мероприятия, борьба с инфекционными заболеваниями, охрана материнского и детского здоровья, а также участие женщин в медицинских профессиях. Особое внимание уделяется деятельности женских больниц, законодательным мерам в области здравоохранения и различиям между государственной политикой и её практической реализацией. Рассматриваются также социальные и экономические препятствия, ограничивавшие доступ женщин к медицинской помощи. Сделан вывод о том, что медицинские учреждения, санитарные инициативы и профессиональные практики позднего османского периода представляют важную историческую основу для изучения политики здравоохранения в первые годы Турецкой Республики.

Ключевые слова: Османская империя, здоровье женщин, медицинская помощь, здоровье матерей, здоровье детей, акушерство, санитария, вакцинация, женские больницы, Турецкая Республика.

KIRISH

Xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish masalasi davlatning ijtimoiy siyosati, tibbiyot tizimi, demografik jarayonlar va jamiyatdagi gender munosabatlari bilan uzviy bog‘liq. Turkiyada ushbu yo‘nalishning tarixiy ildizlarini o‘rganishda Usmonli imperiyasining so‘nggi davri alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan XIX asr va XX asr boshlarida tibbiy xizmatni tashkil etish, sanitariya qoidalarini ishlab chiqish, akusherlik faoliyatini takomillashtirish va ayollar ta’limini kengaytirishga qaratilgan o‘zgarishlar kuchaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi Usmonli imperiyasining so‘nggi davrida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va tibbiy muassasalar faoliyatini tahlil qilish, mavjud tizimning imkoniyatlari hamda cheklovlarini aniqlash va

ushbu tajribaning Turkiya Respublikasining dastlabki yillaridagi sog‘liqni saqlash siyosati bilan tarixiy bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari tibbiy xizmatning institutsional asoslarini, tug‘ruq va bolalar salomatligiga doir siyosatni, sanitariya va emlash tadbirlarini, ayollarning tibbiyot sohasidagi faoliyatini hamda amaliy muammolarni o‘rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Usmonli davrida ayollar salomatligi tarixini o‘rganishda Nil Sarının “Osmanlı Sağlık Hayatında Kadının Yeri” nomli tadqiqoti muhim ilmiy manba hisoblanadi. Muallif ayollarning tibbiy hayotdagi ishtirokini, an’anaviy davolash usullarini, ayol tabiblar, doyalar va boshqa tibbiy faoliyat bilan shug‘ullangan ayollarning o‘rnini yoritadi. Ushbu tadqiqot ayollar tarixini faqat bemorlar bilan bog‘liq holda emas, balki tibbiy bilim va amaliyotning faol ishtirokchilari sifatida o‘rganish imkonini beradi (Sarı, 1996/1997).

Gülhan Balsoyning Haseki ayollar shifoxonasiga bag‘ishlangan tadqiqoti XIX asr Istanbulida tibbiy xizmat va ijtimoiy himoya o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi. Muallif shifoxonaning 1830-yillardan 1893-yilgacha bo‘lgan davrdagi faoliyatini, bemorlar tarkibini va ijtimoiy vazifalarini o‘rganadi. Ushbu ish tibbiy muassasalar faoliyatini baholashda ularning davolash vazifasi bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar hayotidagi o‘rnini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi (Balsoy, 2019).

Emine Ö. Evered va Kyle T. Everedning majburiy emlash tarixiga bag‘ishl angan maqolasi Usmonli imperiyasida jamoat salomatligi, sanitariya ta’limi va chechakka qarshi emlashni tartibga solish jarayonlarini o‘rganadi. Tadqiqotda qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan ularni amalda bajarish imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatiladi. (Evered & Evered, 2020).

Atiye Emiroğlu va Hülya Öztürkning 2022-yildagi tadqiqoti ayol tibbiyot xodimlarining mehnat faoliyatiga qo‘shilishi va kasbiy rivojlanishini o‘rgansa, Öztürk va Emiroğluning 2023-yildagi maqolasi ayollarning tibbiyot ta’limiga qabul qilinishi hamda ilk ayol shifokorlarning kasbiy shakllanishini tahlil qiladi. Bu tadqiqotlar tibbiy xizmatning rivojlanishida ayol mutaxassislar tayyorlash masalasining ahamiyatini ochib beradi.

Maqolada tarixiy-xronologik, qiyosiy va muammoviy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar, tarixiy ma’lumotlar va rasmiy institutsional manbalar asosida tibbiy xizmatning rivojlanish bosqichlari, ayollar salomatligiga ta’sir ko‘rsatgan omillar va qonunchilikning amaliy ijrosi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Usmonli imperiyasida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan bo‘lib, an’anaviy davolash amaliyotlari, shifoxonalar, sanitariya tadbirlari va davlat siyosati bilan bog‘liq holda rivojlangan. Ayollarning tibbiy yordam olish imkoniyatlari oilaviy munosabatlar, ijtimoiy mavqe va tibbiy muassasalarning mavjudligiga bog‘liq edi.

XIX asr Istanbulida xotin-qizlarga tibbiy yordam ko‘rsatish va ularni ijtimoiy himoya qilishda Haseki shifoxonasi muhim muassasalardan biri bo‘lgan. Shifoxonada 1830-yildan 1893-yilgacha kambag‘al va boshpanasiz ayollar, homiladorlar, bemorlar, bevalar hamda boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar joylashtirilgani qayd etiladi. Haseki shifoxonasi tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bir qatorda, muhtoj ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajargan. Shu bilan birga, ayrim ayollarning ushbu muassasada saqlanishi ularni jamiyatdan ajratish va nazorat qilish amaliyoti bilan ham bog‘liq edi [Balsoy, 2019]. Demak, Haseki shifoxonasi tajribasi Usmonli imperiyasida ayollar salomatligini muhofaza qilish masalasi tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya va ijtimoiy nazorat bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi

Onalar va bolalar salomatligi Usmonli imperiyasining so‘nggi davrida muhim demografik va ijtimoiy masalalardan biriga aylandi. Urushlar, hududiy yo‘qotishlar va aholi tarkibidagi o‘zgarishlar sharoitida tug‘ilish darajasini saqlash, bolalar o‘limini kamaytirish hamda onalar salomatligini muhofaza qilishga e’tibor kuchaydi. Mazkur davrda homiladorlikni tibbiy nazorat qilish, tug‘ruq sharoitlarini yaxshilash va doyalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalari davlatning demografik siyosati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi [Hamlacı, 2017].

Bu davrda ayollar reproduktiv salomatligi faqat tibbiy masala sifatida emas, balki davlatning demografik siyosati bilan bog‘liq holda ham ko‘rib chiqilgan. Tug‘ilish

darajasini oshirishga qaratilgan qarashlar homiladorlik, tug‘ruq va abortga doir qonunchilik hamda tibbiy nazorat masalalariga ta’sir ko‘rsatgan. Ayol salomatligi davlatning aholi siyosati bilan chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday siyosatni faqat tibbiy taraqqiyot sifatida baholash biryoqlama bo‘ladi, chunki u ayollarning reproduktiv hayoti ustidan ijtimoiy va davlat nazoratining kuchayishi bilan ham bog‘liq edi [Hamlacı, 2017].

Xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilishda ayollarning tibbiy amaliyotdagi ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etgan. XVII asrda yashagan Küpeli Saliha Hatun faoliyati Usmonli jamiyatida ayollarning jarrohlik amaliyoti bilan shug‘ullanganini ko‘rsatuvchi tarixiy misollardan biridir [Demirsoy et al., 2019]. Saliha Hatun faoliyatiga oid tarixiy hujjatlar ayollarning tibbiy yordam ko‘rsatishdagi ishtiroki zamonaviy tibbiy ta’lim tizimi shakllanishidan ancha oldin mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Biroq alohida ayol jarrohning faoliyati o‘sha davrda ayollar tibbiyot kasbida keng va teng imkoniyatlarga ega bo‘lganini anglatmaydi. Chunki an’anaviy tajribaga asoslangan tibbiy amaliyot bilan rasmiy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimi o‘rtasida muhim farqlar mavjud edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ta’lim olishi va tibbiy kasblarga kirib borishi uchun imkoniyatlar asta-sekin kengaydi. Ayollar 1922-yil oktabrida tibbiyot ta’limini boshlash imkoniga ega bo‘lgan, dastlabki ayol shifokorlar esa o‘qish va amaliy tayyorgarlikdan keyin 1928-yilda diplom olgan [Öztürk, Emiroğlu, 2023]. Bu holat ayollarning tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi kasbiy ishtiroki uzoq davom etgan o‘zgarishlar natijasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Turkiya Respublikasining dastlabki yillaridagi sog‘liqni saqlash siyosati mazkur tarixiy tajriba bilan uzviy bog‘liq edi. Turkiya Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy tarixiy ma’lumotiga ko‘ra, vazirlik 1920-yil 3-mayda, Respublika e’lon qilinishidan oldin tashkil etilgan. Dastlabki vazifalar qatorida urush oqibatlarini bartaraf etish va sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni shakllantirish muhim o‘rin tutgan [T.C. Sağlık Bakanlığı, n.d.]. Demak, Usmonli davrida shakllangan tibbiy muassasalar, sanitariya tajribasi va ayollarning kasbiy tayyorgarligiga oid o‘zgarishlar keyingi davr siyosatini tushunish uchun muhim tarixiy zamin yaratadi. Biroq 1920–1950-yillardagi islohotlarning mazmuni va

natijalarini aniqlash uchun Respublika davriga oid qonunlar, dasturlar va statistik ma’lumotlarni alohida o‘rganish talab etiladi.

XULOSA

Usmonli imperiyasining so‘nggi davrida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish tibbiy, ijtimoiy, huquqiy va demografik omillar kesishgan murakkab jarayon sifatida shakllandi. An’anaviy davolash amaliyotlari va ayol tabiblar faoliyatidan boshlangan tarixiy tajriba XIX asrda shifoxonalar, sanitariya tadbirlari, akusherlik ta’limi va ayollar uchun ta’lim muassasalarining rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, onalar va bolalar salomatligiga e’tiborning kuchayishi faqat tibbiyot taraqqiyoti bilan emas, balki davlatning demografik maqsadlari va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, tibbiy muassasalarning mavjudligi barcha ayollar uchun teng imkoniyat yaratmagan. Hududiy tafovutlar, moddiy resurslarning cheklanganligi, malakali tibbiy xodimlar yetishmasligi va ayollarning ijtimoiy mavqei sog‘liqni saqlash siyosatining amaliy natijalariga ta’sir ko‘rsatgan.

Ayollarning tibbiy kasblarga kirib borishi va kasbiy tayyorgarligining rivojlanishi ham xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish tarixining muhim tarkibiy qismidir. Biroq bu jarayonni ayollarning ta’limga kirish imkoniyatlari bilan cheklab bo‘lmaydi: kasbiy faoliyat yuritish, tibbiy xizmatni tashkil etish va ayollarning real tibbiy ehtiyojlarini qondirish masalalari ham hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balsoy, G. (2019). Haseki Women’s Hospital and the female destitute of nineteenth-century Istanbul. *Middle Eastern Studies, 55*(3), 289–300. https://doi.org/10.1080/00263206.2018.1520099

2. Demirsoy, N., Sayligil, Ö., Topal, M., & Özden, H. (2019). A female surgeon in the 17th century: Küpeli Saliha Hatun and an evaluation of consent forms related to her surgeries. *Konuralp Medical Journal, 11*(3), 468–474. https://doi.org/10.18521/ktd.523900

3. Emiroğlu, A., & Öztürk, H. (2022). Türk kadın sağlık çalışanlarının çalışma hayatına dâhil olmalarının tarihsel süreç içerisinde incelenmesi. *Tarihin Peşinde: Uluslararası Tarih ve Sosyal Araştırmalar Dergisi*, (28), 33–47.

4. Evered, E. Ö., & Evered, K. T. (2020). Mandating immunity in the Ottoman Empire: A history of public health education and compulsory vaccination. *Heliyon, 6*(11), Article e05488. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05488

5. Hamlacı, Y. (2017). Geç Osmanlı döneminde kadın, doğum ve çocuk sağlığı. *Lokman Hekim Dergisi, 7*(1), 23–27. https://izlik.org/JA89MT54WM

6. Öztürk, H., & Emiroğlu, A. (2023). Osmanlı Devleti'nin son dönemleri ile Cumhuriyet'in ilk dönemlerinde ilk kadın hekimlerin Türk sağlık sistemine iştiraklarının döneme yansımalarının değerlendirilmesi: Geleneksel araştırma. *Türkiye Klinikleri Tıp Etiği-Hukuku-Tarihi Dergisi, 31*(1), 34–43. https://doi.org/10.5336/mdethic.2022-92549

7. Sarı, N. (1996/1997). Osmanlı sağlık hayatında kadının yeri. *Yeni Tıp Tarihi Araştırmaları*, (2–3), 11–64.

8. T.C. Sağlık Bakanlığı. (n.d.). *Tarihçe*. https://www.saglik.gov.tr/TR-11492/tarihce.html